



SOCIOLOGICAL ANALYSIS OF THE SUPPORT SYSTEM FOR PERSONS WITH DISABILITIES

Khurshida A. Yulbarsova

Professor of the Department of Sociology and Social Work

Fergana State University

E-mail: hurshida08yulb@mail.ru

Fergana Uzbekistan

Mohinur Z. Gulomova

1st-year Master's student in Sociology

Fergana State University

Fergana Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: person with disability, medical model, social model, inclusion, education, discrimination, individual, rehabilitation, infrastructure, women, society.

Received: 01.06.26

Accepted: 02.06.26

Published: 03.06.26

Abstract: This article provides a sociological analysis of the content, objectives, and practical significance of the support system for persons with disabilities. Issues regarding the ensuring of equal participation of persons with disabilities in society, their social protection, employment, education, and healthcare are examined through the lens of various sociological theories. Furthermore, the article analyzes programs developed on the basis of state policy and legislation, social services, and the role of non-governmental organizations in this field. Based on advanced international experiences, recommendations are provided for improving the existing system.

NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLARNI QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMINING SOTSIOLOGIK TAHLILI

Xurshida A. Yulbarsova

Farg'ona davlat universiteti

Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrası professori

E-mail: hurshida08yulb@mail.ru

Farg'ona, O'zbekiston

Moxinur Z. G'ulomova

Farg'ona davlat universiteti

Sotsiologiya yo'nalishi magistranti

Farg'ona, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: nogironligi bo'lgan shaxs, tibbiy model, ijtimoiy model, inklyuziya, ta'lim, diskriminatsiya, individual, reabilitatsiya, infratuzilma, xotin-qizlar, jamiyat, realibilitatsiya.

Annotatsiya: Ushbu maqolada nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimining mazmuni, maqsadi va amaliy ahamiyati sotsiologik tahlil qilinadi. Nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatda teng huquqli ishtirokini ta'minlash, ularning ijtimoiy himoyasi, bandligi, ta'lim olishi va sog'lig'ini saqlash masalalari turli sotsiologik nazariyalar nuqtai-nazaridan ko'rib chiqiladi. Shuningdek, davlat siyosati va qonunchilik asosida ishlab chiqilgan dasturlar, ijtimoiy xizmatlar va nodavlat tashkilotlarning bu boradagi roli tahlil etiladi. Maqolada ilg'or xorijiy tajribalar misolida mavjud tizimni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ham berilgan.

СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СИСТЕМЫ ПОДДЕРЖКИ ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ

Хуршида А. Юлбарсова

Ферганский государственный университет

Профессор кафедры социологии и социальной работы

hurshida08yulb@mail.ru

Фергана, Узбекистан

Мохинур З. Гуломова

Ферганский государственный университет

Магистрант I-го курса по направлению «Социология»

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: лицо с инвалидностью, медицинская модель, социальная модель, инклюзия, образование, дискриминация, индивидуальный, реабилитация, инфраструктура, женщины, общество.

Аннотация: В данной статье проводится социологический анализ содержания, целей и практической значимости системы поддержки лиц с инвалидностью. Вопросы обеспечения равноправного участия лиц с инвалидностью в жизни общества, их социальной защиты, занятости, образования и здравоохранения рассматриваются с точки зрения различных

социологических теорий. Также анализируются программы, разработанные на основе государственной политики и законодательства, социальные услуги и роль негосударственных организаций в этой сфере. В статье даны рекомендации по совершенствованию существующей системы на основе передового зарубежного опыта.

Kirish. Bugungi kunda nogironligi bor shaxslar manfaati va huquqlarini himoya qilish davlat ijtimoiy siyosatining muhim strategik yonalishi hisoblanadi. Dunyo aholisining qariyb 15 foizi yani bir milliard kishi nogironlik bilan yashaydi. Bundan tashqari, dunyodagi barcha bolalarning taxminan 5% (95 million bola) nogironlik bilan yashaydi, taxminan 0,7 foizi (13 million) nogironlikning og'ir shakli bilan yashaydi. Mazkur holat butun jahonda nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatga integratsiyalashuvi borasidagi samarali modellar, texnika va vositalar mexanizmlarini ishlab chiqilishini hamda amaliyotga tadbiiq etilishini taqozo etadi.

Shu sababli so'nggi yillarda aholini ijtimoiy muhofaza qilish muayyan tizimga aylandi. Muhtoj qatlam va guruhlarga ijtimoiy xizmat ko'rsatishning o'ziga xos milliy mexanizmi ishlab chiqildi. Aholini ijtimoiy himoya qilish, jumladan, nogironligi bor shaxslarga yaratilayotgan imkoniyatlar, shart-sharoitlar respublikamizda ijtimoiy himoyaning o'ziga xos tizimi shakllanganidan dalolat beradi. Nogironligi bor shaxslar bilan ijtimoiy ish jarayonini sotsiologik o'rganish bizga nafaqat nogironligi bo'lgan insonlar bilan ishlash amaliyotini, balki talabalarning, qolaversa bu sohada ish olib borayotgan keng jamoatchilikka katta imkoniyatlar eshigini ochib beradi va kelgusida ijtimoiy sohadagi faoliyatni va amaliyotni rivojlantirishga ijobiy xizmat qiladi.

Shunga ko'ra, BMTning "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasining xalqaro standartlari va talablarini, shuningdek, "nogiron" so'zi o'rniga "nogironligi bo'lgan shaxs" atamasidan foydalanishni nazarda tutuvchi "Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risida"gi Qonun [1] qabul qilinishi mamlakatimizning yuqoridagi toifaga mansub vakillarining huquq va manfaatlarini ifodalashga, ularning jamiyatga muammosiz integratsiyasini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot usullari. Nogironlik ijtimoiy hodisa bo'lib, rivojlanishning iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatlaridan qat'iy nazar, hech bir davlat, hech bir jamiyat undan qochib qutula olmaydi. JSST ma'lumotlariga ko'ra, "nogironlik na biologik, na ijtimoiy tushunchadir, balki sog'liq holati, atrof-muhit va shaxsiy omillarning o'zaro ta'siri natijasidir"[6]. Shunday qilib, nogironlik bir omil bilan chegaralanib qolmaydi, u sog'liqni yomonlashuvining barcha darajalarini qamrab oladi, har

qanday qobiliyatni yo'qotadi, buning natijasida jamiyatda ishtirok etish va o'zaro munosabatlarga kirishish qiyin kechadi.

Ilk bor nogironlik muammosini tahlil qilgan sotsiologlar Ch.Lombrozo[7], E.Dyurkgeym[5]lar bo'lib, ular o'zlarining sotsiologik nazariyalarida nogironlik masalalariga to'xtalib o'tganlar. Jumladan, ijtimoiy patologiya yondashuvlari nogironlikning an'anaviy modellarini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkinligi to'g'risidagi fikrlarni bayon qilganlar. Shuningdek, kasal insonning sotsial roli T.Parsons[12], stigmatizatsiya nazariyasi I.Xoffman[3] asarlarida tahlil qilingan.

Bugungi kunda "nogironlik" atamasi juda ko'p turli xil funktsional cheklovlarni o'z ichiga oladi: inson jismoniy, aqliy yoki sensor nuqsonlar, sog'liq yoki ruhiy kasalliklar tufayli nogiron bo'lib qolishi mumkin[13].

Amerikalik sotsiolog Laura Mauldin nogironlikni shunchaki tibbiy holat emas, balki ijtimoiy tengsizlik shakli sifatida talqin qiladi. Unga ko'ra, nogironlik ijtimoiy institutlar, iqtisodiy tizimlar va madaniy stereotiplar orqali shakllanadi va mustahkamlanadi. Bu yondashuvga ko'ra, "nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimi faqat yordam berish emas, balki ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish mexanizmi" [8] hisoblanadi.

Shuningdek britaniyalik olim Maykl Oliver tomonidan ishlab chiqilgan "ijtimoiy model" nazariyasi nogironlik bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda eng muhim nazariyalardan biri hisoblanadi. Bu nazariyaning asosiy g'oyasi "nogironlik inson tanasidagi nuqson emas, balki jamiyat tomonidan yaratilgan to'siqlardir"[11]. Yani jamiyat nogironligi bo'lgan shaxslarning ehtiyojlariga moslashishi kerak, aksincha emas, nogironlar nogironligi bo'lmagan jamiyatga moslasha olmasligi kerak. Misil uchun nogironligi bor shaxs binoga erkin harakat qilib kirishi uchun panduslarning bo'lishi kerakligi, jamiyat a'zolari ularni kamsitmasligi, stereotiplar ta'sirida ularga stigmalar qo'yimasliklari lozim.

Amerikalik tadqiqotchi Sara Gering tibbiy modelni tanqid qilib, "tibbiy model nogironlikni individual muammo sifatida ko'rishini, uni davolash yoki "normal holatga keltirish"ga urg'u berishini, ammo nogironlik ko'pincha shaxs va ijtimoiy muhit o'rtasidagi nomuvofiqlik natijasi ekanini"[4] ta'kidlaydi. Bu yondashuv shuni ko'rsatadiki, qo'llab-quvvatlash tizimi faqat tibbiy yordam bilan cheklanmasligi kerak, balki ijtimoiy moslashuvni ham qamrab olishi zarur.

Shuningdek zamonaviy xorijiy tadqiqotchilar "insonning biologik yoki psixologik holati ma'lum ijtimoiy va ekologik sharoitlarda uning farovonligi nuqtai nazaridan hayot sifatining yomonlashish ehtimolini oshirsa, bunday holat nogironlik hisoblanadi"[14], deya ta'kidlaydilar. Bu velfaristik yondashuv bo'lib, tibbiy modeldan farqli ravishda, nogironlikni turga xos "normal

funksiyalardan chetga chiqish” bilan bog‘lamaydi hamda uni mohiyatan o‘zgarmas (essensialistik) tushunchalarda talqin qilmaydi. Bu yondashuv ijtimoiy modelga o‘xshash tarzda, nogironlikni insonning biologik va psixologik xususiyatlari bilan uni o‘rab turgan muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir natijasida yuzaga keladigan zararli holat sifatida ko‘radi. Biroq, ijtimoiy modeldan farqli ravishda, ushbu yondashuv nogironlik bilan bog‘liq zarar faqat ijtimoiy stereotiplar yoki adolatsizliklar natijasida yuzaga keladi, degan qarashni inkor etadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ham nogironlik muammosi, uning ijtimoiy, psixologik va pedagogik jihatlari har tomonlama chuqur o‘rganilmoqda. Tadqiqot jarayonida ko‘plab adabiyotlarni o‘rganganimizda, imkoniyati cheklangan bolalar, ularning rivojlanishi, jamiyatga moslashuvi, ta’lim olishi, salomatligi, kasb egallashi kabi masalalar olimlarimiz tomonidan tadqiq qilinganiga guvohi bo‘ldik. Jumladan, T.Ahmadaliyev va M.Soliyevlar[2] imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlovchi mutaxassislar uchun imkoniyati cheklangan bolalarga kasb-xunar o‘rgatish metodikasini ishlab chiqib, unda alohida ehtiyojga ega bolalarga o‘ziga xos yondashuvni qo‘llashni tavsiya qilganlar.

M.X.Mirjamolov[9] o‘z tadqiqotlarida ko‘rish imkoniyati cheklangan bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish masalalarini o‘rgangan. Jumladan, turli usullar orqali jamiyatga integratsiyalashuvini hamda ijtimoiy moslashuvini asoslab bergan.

F.U.Qodirova[16] imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning innovatsion texnologiyalarini tahlil qilish orqali imkoniyati cheklangan bolalarni keng imkoniyatlarga ega ekanligini, unda ota-ona va mutaxassislarning ko‘magi zarur ekanligini yoritib bergan. M.X.Ganiyeva, N.M.Latipovalar[10] M.Usmonova[15], D.Qosimova[17] nogironligi bo‘lgan insonlar bilan ijtimoiy ish olib borishning o‘ziga xosliklari, ular bilan ishlashda muloqot ko‘nikmalari, nogironlikning sabab va oqibatlarini, O‘zbekistonda keksalar va nogironlarni ijtimoiy himoyalash tizimining tashkiliy-huquqiy muammolarini, nogironlikning tibbiy va ijtimoiy modellarini o‘rganganlar.

Xorijiy va respublikamiz olimlarining qarashlari shuni ko‘rsatadiki, nogironlikni tushuntirishda turli nazariy yondashuvlar mavjud bo‘lib, ular orasida ijtimoiy model alohida ahamiyatga ega. Ushbu model nogironlikni shaxsning individual kamchiligi emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy to‘siqlar natijasi sifatida talqin qiladi. Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotlarda nogironlik biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning o‘zaro ta’siri sifatida qaralmoqda. Bu esa nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash tizimini kompleks, inklyuziv va tizimli ravishda tashkil etishni talab qiladi.

Natijalar. Mazkur tadqiqotda nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash tizimini sotsiologik jihatdan o‘rganishda kompleks yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot ijtimoiy konstruktivizm va inson huquqlari modeli nazariy asoslariga tayanadi. Ushbu yondashuvlar nogironlikni shaxsning individual muammosi sifatida emas, balki ijtimoiy muhit, institutlar va madaniy stereotiplar bilan bog‘liq hodisa sifatida talqin etadi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash tizimi — bu faqat bir soha masalasi emas; bu butun jamiyatning inklyuzivligi, inson huquqlari va iqtisodiy barqarorlik bilan chambarchas bog‘liq kompleks tizimdir. Samarali tizim jamiyatning barcha qatlamlariga foyda keltiradi: inson qadr-qimmatini saqlanadi, ijtimoiy adolat mustahkamlanadi va iqtisodiyotga qo‘shimcha imkoniyatlar yaratiladi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslarni huquqlarini himoya qilish uchun BMT ning bir qancha konsepsiyalari va xalqaro tajribalar ham mavjud. BMTning «Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi» (CRPD) nogironlikni inson huquqlari nuqtai nazaridan tartibga soluvchi asosiy hujjat hisoblanadi. Konvensiya davlatlarni nogironligi bo‘lgan shaxslarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotga to‘la va teng huquqli kirishini ta‘minlashga majbur qiladi. Bu hujjat inklyuziya, muqobil yordam, akademik va mehnat imkoniyatlari hamda diskriminatsiyaga qarshi kafolatlarni belgilaydi. Qo‘llab-quvvatlashda huquqiy himoya: AQSH dagi Americans with Disabilities Act (ADA, 1990) — nogironligi bo‘lgan shaxslarni ish joyi, jamoat joylari, transport va ta‘limda diskriminatsiyadan himoya qiluvchi keng qamrovli qonuniy mexanizm hisoblanadi. ADA «reasonable accommodations» (mantiqiy moslashuv) tushunchasini joriy qilgan: ish beruvchilar va xizmat ko‘rsatish subyektlari imkoniyatlarni kengaytirish uchun oqilona choralar ko‘rishga majbur. Bu yondashuv ko‘plab mamlakatlarda qonuniy normalar va amaliy xizmatlarni shakllantirishda namunaga aylangan. Shuningdek Yevropa va Buyuk Britaniya: teng huquqlar va „reasonable adjustments“ ya‘ni Buyuk Britaniyada Equality Act (2010) nogironlikni aniqlab, sog‘liq, ta‘lim va ish joyida diskriminatsiyani ta‘qiqalaydi hamda tashkilotlarni «reasonable adjustments» qilishga chaqiradi — ya‘ni muhitni va xizmatlarni moslashtirish vazifasini bajaradi. Bu qonun ish beruvchilar va xizmat ko‘rsatuvchilarga nogironligi bo‘lgan shaxslarning imkoniyatlarini tenglashtirish uchun amaliy choralar ko‘rishni talab qiladi.

O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash sohasida bir qator muhim qonun va dasturlar qabul qilingan. Xususan, “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-maydagi PF-5996-sonli, “Aholining

hojatmand qatlamlarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash hamda tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2016-yil 22-fevraldagi PF-4782-sonli, 2017-yil 1-dekabrda “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5270-sonli farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-avgust PQ-4797-sonli “Aholiga davlat ijtimoiy xizmatlari va yordam taqdim etish tartib-taomillarini avtomatlashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko‘maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 21-dekabrda PQ-57-sonli qarorlari mamlakatimizda aholining ehtiyojmand qatlamlarini, ayniqsa nogironligi bor shaxslarni mehnat bilan ta‘minlashda har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bandligini ta‘minlash orqali munosib turmush tarzini yaratish borasida kuchli ijtimoiy siyosat olib borilayotganining huquqiy assoslari hisoblanadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko‘maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2021-yil 21-dekabrda PQ-57-sonli Qarori ijrosini ta‘minlash hamda nogironligi bo‘lgan shaxslarning bandligiga ko‘maklashishni yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu ham nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy faolligini oshirish va ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga oid sotsial reformalarning huquqiy asosi hisoblanadi.

Muhokama. 2023-2025-yillarda 1000 dan ortiq maktabda inklyuziv sinflar tashkil etilishi rejalashtirilgan. Sog‘liqni saqlash tizimida Respublika miqyosida rehabilitatsiya markazlari faoliyat yuritmoqda. Bu yerda fizioterapiya, ortopedik yordam, psixologik maslahatlar beriladi. Ijtimoiy himoya va moddiy qo‘llab-quvvatlash tizimi ham mavjud bo‘lib, bunda nogironligi bo‘lgan shaxslarga davlat tomonidan nafaqa va imtiyozlar beriladi, kommunal xizmatlarda chegirmalar, bepul yoki arzonlashtirilgan dori-darmonlar, protez-ortopedik vositalar taqdim etiladi. Ammo qonunlar mavjud bo‘lsa-da, ularni amaliyotga to‘liq joriy qilishda qiyinchiliklar bor. Ayrim joylarda infratuzilma yetarli emas (panduslar, lifllar, maxsus belgilarning yo‘qligi), bandlik darajasi past, nogironlar ko‘pincha norasmiy sektor yoki uy sharoitida mehnat qiladi. Nogironligi bo‘lgan shaxslarning mehnat bozorida o‘z o‘rnini topishi nafaqat ularning moddiy ta‘minoti, balki jamiyat hayotiga integratsiyasi uchun ham muhimdir.

Biroq O‘zbekistonda bu sohada bir qator muammolar mavjud. Birinchidan, ko‘plab ish beruvchilar nogiron xodimlar uchun moslashgan ish joylarini yaratishni qo‘shimcha xarajat sifatida ko‘radi. Panduslar, maxsus uskunalar, texnik vositalar va qulay ish sharoitlarini tashkil

etish uchun resurs yetarli emasligi sababli, ko'pincha ular nogironlarni ishga qabul qilishdan bosh tortadi. Yoki qonunchilikda ish beruvchilar uchun nogironlarni ma'lum kvotada ishga olish majburiyati belgilangan bo'lsa-da, amaliyotda bu ko'rsatkich ko'p hollarda bajarilmaydi. Shuningdek, Raqamli texnologiyalar nogironlar uchun katta imkoniyat yaratishi mumkin, biroq masofadan ishlash imkoniyatlari O'zbekistonda hali keng joriy qilinmagan. Ikkinchidan, nogironligi bo'lgan shaxslar bilan yuzaga keladigan diskriminatsiyalar ham ularning mehnat bozoriga kirishini cheklaydi.

Mavjud qonunchilik asoslari, hujjatlar, statistik ma'lumotlar hamda kuzatishlar natijasida biz nogironligi bo'lgan shaxslar uchun mehnat bozoridagi asosiy to'siqlarni aniqlashtirdik.

1-jadval.

Mehnat bozorida nogironligi bo'lgan shaxslar inklyuziyasiga ta'sir qiluvchi omillar

Institutsional to'siqlar	Nogironlikni baholash tizimi Nogironligi bo'lgan shaxslarni mehnatga layoqatli va nogironlik toifalariga ajratish ularning ish topish imkoniyatlarini jiddiy darajada cheklagan
	Ish o'rinlari kvotasi Ish o'rinlari kvotalarining nazorat qilinmasligi ish beruvchilarning hech qanday jarimalar yo'qligi sabab kvota tizimiga qioya qilmaydilar
	Ijtimoiy himoya tizimi Yetarli bo'lmagan individual reabilitatsiya dasturlarikasbiy tayyorgarlik va moslashuvni qiyinlashtiradi
Infrastrukturaviy to'siqlar	Foydalanish imkoniyati bo'lmagan infratuzilma Ko'p sonli jamoatchilik obyektlari va transport vositalari nogironligi bor shaxslarga moslashtirilmagan
Munosabatdagi to'siqlar	Stereotiplar Ish beruvchilarning nogironligi bo'lgan shaxslarning ishlash qobiliyatiga ishonmasliklari; nogironligi bo'lgan shaxslar doim birovning ko'magiga muhtoj degan qarashlar; Jamiyatda eng keng tarqalgan fikrga ko'ra, nogironligi bo'lgan shaxslar ishlashdan ko'ra hayriya yordamini olib uyda o'tirishlari kerak
Qonuniy to'siqlar	Qonunchilikdagi kamchiliklar Kamsituvchi til Rasman ishlayotgani uchun ijtimoiy nafaqalarni bermay qo'yishidan havotirga tushish
O'zaro kesishuvchi omillar	Gender diskriminatsiya Nogironligi bo'lgan ayollar jinsi va nogironligi tufayli ikki karra kamsitishga duch keladilar
	Ijtimoiy chetlatish

	Bandlike haqidagi ma'lumotlarning yetishmasligi hamda umuman mehnat bozoriga kirishning imkoniyatlari cheklanganligi
--	--

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat bozoriga integratsiyasi ko'plab o'zaro bog'liq to'siqlar bilan cheklanmoqda. Ushbu to'siqlarni shartli ravishda institutsional, infrastruktura, munosabatga oid, huquqiy va o'zaro kesishuvchi omillarga ajratish mumkin.

Institutsional darajada nogironlikni baholash tizimining nomukammalligi hamda shaxslarni qat'iy toifalarga ajratish ularning ish topish imkoniyatlarini keskin kamaytiradi. Ish o'rinlari kvotasining amalda nazorat qilinmasligi esa ish beruvchilarning ushbu tizimga rioya qilmasligiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, individual reabilitatsiya dasturlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi kasbiy tayyorgarlik va moslashuv jarayonlarini murakkablashtiradi.

Infrastruktura bilan bog'liq muammolar, xususan, jamoat obyektlari va transport vositalarining moslashtirilmaganligi nogironligi bo'lgan shaxslarning mustaqil harakatlanishi va ishga borish imkoniyatlarini cheklaydi.

Munosabatlar darajasida esa jamiyatda mavjud stereotiplar muhim to'siq bo'lib qolmoqda. Ish beruvchilarning nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat qobiliyatiga ishonchsizligi, ularni doimiy yordamga muhtoj deb hisoblash hamda ularning faol mehnat qilishidan ko'ra ijtimoiy yordamga tayanishi kerak degan qarashlar bandlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Huquqiy jihatdan esa qonunchilikdagi ayrim kamchiliklar, jumladan kamsituvchi yondashuvlar va rasmiy bandlik holatida ijtimoiy nafaqalardan mahrum bo'lish xavfi ham nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga kirishdan to'sadi.

Bundan tashqari, gender diskriminatsiya va ijtimoiy chetlatish kabi o'zaro kesishuvchi omillar vaziyatni yanada murakkablashtiradi. Ayniqsa, nogironligi bo'lgan ayollar ikki karra kamsitishga duch keladi, bandlik haqidagi ma'lumotlarning yetishmasligi esa ularning mehnat bozoriga kirishini yanada cheklaydi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimi institutsional jihatdan shakllanayotgan bo'lsa-da, amaliyotda qator muammolar saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, bandlik, infratuzilma va ijtimoiy stereotiplar asosiy to'siqlar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mazkur holat ijtimoiy model nazariyasini tasdiqlaydi, ya'ni nogironlik ijtimoiy to'siqlar natijasida kuchayadi. Shu bilan birga, velfaristik yondashuv ham dolzarb bo'lib, nogironlikni kompleks hodisa sifatida ko'rish zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, jamiyatda nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish ularning hayot sifatini oshirish bilan bir qatorda, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlarni chuqurlashtirish, zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Sotsiologik tahlil natijalari nogironlik muammosining ijtimoiy modelga mos kelishini ko'rsatdi. Ya'ni asosiy muammo shaxsda emas, balki ijtimoiy muhitda. Velfaristik yondashuv nuqtai nazaridan esa nogironlik biologik va ijtimoiy omillarning o'zaro ta'siri natijasidir, shu bois qo'llab-quvvatlash tizimi kompleks bo'lishi zarur.

Ish beruvchilar tomonidan yashirin diskriminatsiya mavjudligi nogironligi bo'lgan shaxslarda bandlik muammosini bartaraf qilishga to'sqinlik qilmoqda. Nogironligi bo'lgan shaxslarning katta qismi ish bilan ta'minlanmagan. Sotsiologik tahlillar bu borada ijtimoiy stereotiplarning ta'sirini kuchli deb baholaydi. Sababi jamiyatda nogironlarga nisbatan achinish, ayblash, kamsitish kabi yondashuvlar mavjud. Ularni faol ijtimoiy subyekt sifatida qabul qilish darajasi past.

Shu o'rinda jamiyatda nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash tizimini mustahkamlash uchun institutsional islohotlarni kuchaytirish, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish, infratuzilmani moslashtirish, ijtimoiy ongni o'zgartirish hamda huquqiy bazani mustahkamlash hamda gender va ijtimoiy inklyuziyani ta'minlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. “Ногиронлиги бўлган шахслар ҳуқуқлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни. 2020 йил 15 октябрь, ЎРҚ-641-сон
2. Ахмадалиев Т., Солиева М. “Имконияти чекланган болаларга касб-ҳунар ўргатиш методикаси” // Ўқув қўлланма Тошкент 2016й
3. Гофман И. Стигма: Заметки об управлении испорченной идентичностью, 1963.
4. Goering S. Rethinking disability: the social model of disability and chronic disease. *Curr Rev Musculoskelet Med.* 2015 Jun;8(2):134-8. doi: 10.1007/s12178-015-9273-z. PMID: 25862485; PMCID: PMC4596173.
5. Дюркгейм Э. Социология: ее предмет, метод, предназначение, 2008.
6. Инвалидность. Всемирная организация здравоохранения. Исполнительный комитет. 132 сессия. Пункт 6.5. 2012. 30 ноября//<http://apps.who.int/iris/bitstream/handle/>.
7. Ломброзо Ч. Гениальность и помешательство, 2012.

8. Молддин, Лаура, «Социологические перспективы инвалидности» , в книге Робин Льюис Браун, Мишель Марото и Дэвид Петтиниччио (ред.) , Оксфордский справочник по социологии инвалидности (2023; онлайн-издание, Oxford Academic , 10 ноября 2021 г.), <https://doi.org/10.1093/oxfordhb/9780190093167.013.3>
9. Миржамолов М.Х. “Кўриш имконияти чекланган болаларда жисмоний сифатларни ривожлантириш услубиёти” //Фан-спортга журнали, 2020й. 46-49бетлар
10. М.Х.Ганиева, Н.М.Латипова. “История и теория социальной работы”// Методическое пособие.- Ташкент 2015г.
11. Оливер, М. (1983). Социальная работа с людьми с ограниченными возможностями. Лондон, Macmillan Education UK.
12. Парсонс Т. О социальных системах, 2002.
13. Стандартные правила обеспечения равных возможностей для инвалидов приняты резолюцией 48/96 Генеральной Ассамблеи от 20 декабря 1993. -С.153
14. Savulescu J, Kahane G. Disability: a welfarist approach. Clin Ethics. 2011 Mar;6(1):45-51. doi: 10.1258/ce.2011.011010. PMID: 22140353; PMCID: PMC3227811.
15. Усмонова М. “Ўзбекистонда кексалар ва ногиронларни ижтимоий химоялашнинг ташкилий-ҳуқуқий муаммолари” Дисс. Юридик фанлар номзоди. – Тошкент, 1995й. 34-48 бетлар
16. Қодирова Ф.У. “Имконияти чекланган болаларни ижтимоий ҳаётга тайёрлашнинг инновацион технологиялари”// Замонавий таълим журнали, 2018й. 73-78 бетлар.
17. Қосимов Д. “Ногиронликнинг тиббий ва ижтимоий моделлари”// Қадрият, 2013й. 22июнь.